

ESSE JANRI XUSUSIYATLARI

Oybek Axatovich Mamatkulov*Doktorant Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston**Tel: +998909650414**Email: oybekmuhammad89@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu mavzuda esse janrining nazariy va amaliy xususiyatlari yoritiladi. Essening adabiy janr sifatidagi o'ziga xos jihatlari — subyektivlik, erkin kompozitsiya, muallif shaxsining faol ishtiroki, individual fikrlash va baholash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, esse janrining badiiy va publitsistik unsurlarni uyg'unlashtirishi, mantiqiy izchillikdan ko'ra muallif pozitsiyasining ustuvorligi, obrazlilik va falsafiy mushohadaga moyilligi ko'rsatib beriladi. Mavzu essening ilmiy, publitsistik va adabiy sohalaridagi qo'llanilishi nuqtayi nazaridan ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: esse, janr, subyektivlik, muallif pozitsiyasi, erkin kompozitsiya, badiiy tafakkur, publitsistik uslub, individual fikr, obrazlilik, mushohada

Adabiyotdagi har bir janr o'z davriga xos, uning ehtiyojlarini to'laroq ifodalash zamirida paydo bo'ladi. Esse ham shu tariqa paydo bo'lgan janrlardan hisoblanadi. Ba'zi she'riy esselarni hisobga olmaganda deyarli barcha esselar nasrda yozilgan.⁹²

Esse so'zi fransuzchadan "sinab ko'rish, urinish, tajriba" degan ma'nolarni anglatadi. Fransuz Monten (Mishel de Montaigne, 1533–1592) o'z ijodini esse sifatida tasvirlagan birinchi muallifdir. U o'z fikrlari yozilgan kitobni "Essais" (urinishlar, tajribalar) deb ataydi. Monten esse yozish tajribasida o'qigan kitoblaridan olgan xulosalarini, iqtisodiy-siyosiy holatlarni, odamzodning o'zini tutishi, turli urush-u nizolar haqida fikr yuritgan.⁹³ Ayni chog'da, mutaxassislar essegga xos elementlar bunga qadar ham bo'lgani, jumladan, ularni antik davr adibi Lukian nutqlarida kuzatish mumkinligini ta'kidlaydilar.⁹⁴

Shunday qilib Yevropa adabiyotida 16-17 asrlarda Ben Jonson, Villiam Kornvollis, Robert Burton, Tomas Bravn, Baldassare Kostiglion, Jesyut Baltasar kabi esseistlar ijtimoiy, falsafiy, diniy, odob-axloqqa oid esselari bilan Montenni ishini davom ettirdilar.

Esse uzbek adabiyotidagi badia janrining o'ziga xos xususiyatlari bilan garb adabiyotidagi esse janrini eslatadi. N. Rahimjonov⁹⁵ esse va badiani bir-biridan farqlamaydi, bir o'rinda "esse" desa, boshqa o'rinda "badia" deb qo'llaydi. Ya'ni olim

⁹² <https://en.wikipedia.org/wiki/Essay>

⁹³ [https://en.wikipedia.org/wiki/Essays_\(Montaigne\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Essays_(Montaigne))

⁹⁴ Manba -B. 376.

⁹⁵ Rahimjonov N. Badia haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1983. 5-son.



bu ikkala janrni bir xil ijod shakli deb qaragan. Jumladan, u “Badialar, (adabiy o‘ylar) mohiyatan turli shakllarda (yozuvchi va tanqidchi dialogi, qaydlar, badiiy etyudlar, esselar, kundaliklar, sadolar, qayd-esdaliklar tarzida) zuxurlanayotir.» yoki «Badialarning boshka janrlarga ko‘rsatayotgan ta’siri esse, xotira-esdalik, ilmiy-badiiy tahlil unsurlarining nasriy asarlarda ko‘plab uchrayotganida ko‘zga tashlanadi»⁹⁶, дейди. Muallifning shaxsiy munosabati, mulohazalarning xilma-xilligiga ko‘ra esse va badiani bir-biriga teng janr deyish o‘rinli. Marhabo Qo‘chqorova esa “Mohiyatan-fitratan esse badiaga nisbatan kengroq tushuncha, ular bir-birini inkor etmagan holda, ya’ni Sharqda – badia, G‘arbda esa esse mustaqil nasriy janrlar tariqasida shakllandi»⁹⁷, – deb yozadi.

Esselar dastlab badi‘alar tarzda namoyon bo‘lar ekan, sharqda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino risolalaridagi teran muhokamalarga asoslangan ibratli bitiklar, keyinchalik Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi, “Hayrat-ul abror”ning ayrim boblari (“Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhi”, “Abdurahmon Jomiy madhi”, “Husayn Boyqaro madhi”, “Badiuzzamon haqida”), “Mahbub-ul qulub” asari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari esse janri yuzaga kelishidagi dastlabki namunalar sifatida e’tirof etiladi.⁹⁸ Shundan kelib chiqib O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidagi “O‘zbek adabiyotida 20- asming 70-80 yillaridan esse yaratila boshlandi»⁹⁹ jumlasini “70-80 yillardan “esse” termin sifatida ishlatila boshlandi” desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ingliz adabiyotshunosligida esse – qisqa, erkin kompozitsiyali, maxsus fan tarmoqlariga xos mulohazakorlik belgisi sifatida talqin qilinadi, shuningdek essening chegarasi aniq emasligi, aniq bir to‘xtami yo‘q ekanligi ham ta’kidlanadi.¹⁰⁰ Chikagoda nashr qilingan ensiklopediyada esa “Esse – maxsus fan tarmoqlariga xos qisqa prozaik mulohazalar” ekani ta’kidlanadi.¹⁰¹

Esseist Aldous Huxley “Esse - deyarli hamma narsa haqida deyarli hamma narsani aytish uchun adabiy vosita” ekanligini ta’kidlaydi va “an’anaga ko‘ra, esse qisqa parchadir” deb qo‘shimcha qiladi.¹⁰² U essenini mazmuniga ko‘ra uch turga bo‘ladi: 1. Shaxsiy va avtobiografik: Bu turda esseistlar o‘zini juda qulay his qiladi va avtobiografiyadan parchalar yozadilar va dunyoga latifalar va tavsiflarning kalit teshigi orqali qarashadi. 2. Ob’ektiv, faktik va konkret xususiyatli: Bu turda yozadigan esse mualliflari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari haqida gapirmaydilar, balki e’tiborlarini

⁹⁶ Рахимжонов Н. Илмий тафаккур жилolari. - Т.: Фан, 1991. - Б. 44.

⁹⁷ Qo‘chqorova M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida esse janri. Filol. fanlarinomzodi... diss. -Toshkent, 2004. -B. 10.

⁹⁸ Kazakova G.Q: Ijodkorsiyomosiga badiiy chizgilar (xotira-esselar)/ "Экономика и социум" №8(99) 2022. -b. 24.

⁹⁹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2005. -B. 222.

¹⁰⁰ Dictionary of world literary terms. Ed. by J.T. Shipley. L. 1970. -p. 106; Current literary terms. A.Dictionary of Originind USE. L. 1980. -p. 98

¹⁰¹ World book encyclopedia. vol. 5. Chicago., 1947. -p. 2385

¹⁰² Aldous Huxley, Collected Essays, "Preface", London: Harper and Brothers, 1960, p. v. <https://en.wikipedia.org/wiki/Essay>

qandaydir adabiy, ilmiy yoki siyosiy mavzuga qaratadilar. Ularning san'ati tegishli ma'lumotlarni bayon qilish, baholash va umumiy xulosalar chiqarishdan iborat. 3. Mavhum-universal: Ushbu turda biz o'z ishlarini yuqori abstraktsiyalar olamida bajaradigan esse mualliflarini topamiz, ular hech qachon shaxsiylashmaydi va faktlarni kamdan-kam holatda eslatib turadi.¹⁰³

Inglizcha "Adabiyot bo'yicha qo'llanma" kitobida esa "esse, odatda, muallifning o'ziga xos argumentlarini keltiradigan yozma asar" deya ta'riflanadi va esselar rasmiy va norasmiyga bo'linadi: rasmiy esselar "jiddiy maqsadli, mantiqiy izchillik, qimmatlilik va davomiylik" bilan, norasmiy esse esa "shaxsiy element (shaxsiy munosabat, individual did va tajribalar, yashirin uslub), yumor, nafis uslub, g'ayrioddiy struktura, noan'anaviylik va mavzuning yangiligi bilan tavsiflanadi.¹⁰⁴ Shu o'rinda aytish kerakki, ingliz tilidagi "essay" so'zi o'zbek adabiy iste'molida uch xil ma'noni ifodalaydi: 1) urinish, tajriba, sinab ko'rish 2) ocherk 3) insho.

Mazkur qo'llanmada keltirilgan rasmiy esse hozirgi kunda tillar va fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmani aniqlash imtihonlarida yoziladigan inshoga va yoki maktab davrida yoziladigan erkin mavzudagi inshoga ham to'g'ri keladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'p holatlarda o'zbek tilida yoziladigan insholarga so'z qo'llash mahorati, tinish belgilarining o'rinli qo'llash, gap qoliplarini to'g'ri tuza bilish, fikrlarini ravon ifodalash, reja asosida yozish kabi qat'iy talablar ham qo'yiladiki, bular inshoni baholash mezoni hisoblanadi. Norasmiy esse bo'lsa shoir va yozuvchilarning olamni tushunishida, hayot, jamiyat, ilm sarhadlarini anglashida sinov-tajriba janr ekanini ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, Yevropada har qanday fikr-mulohaza, u qanday mazmunda bo'lishidan qat'iy nazar essay deb yuritiladi. Shu boisdan esse faqatgina adabiy janr emas, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, faraz va muhokamalarni aks ettiruvchi qulay ijodiy janrdir. Aynan ana shu xususiyati uni boshqa nasriy janrlardan ajratib turadi. Turfa xil kasb egalari – yozuvchi, shoir, o'qituvchi, kimyogar, faylasuf, matematik, fizik, shifokor, sportchi, adabiyotshunos, tilshunos, siyosatshunos, rassom, aktyor va hatto bloger uchun esse birdek baravar janr. Yozuvchidan boshqa biror kasb egasi roman, hikoya, qissa yozishi qiyin masala, ammo esse yozishi mumkin. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, esse deyarli hamma narsa haqida deyarli hamma narsani aytish uchun adabiy vosita, qalban his etilgan muayyan mulohaza, shaxsiy tajriba va shaxsiy qarashlar ifodasidir. Essening ocherk ma'nosiga quyiroqda to'xtalamiz.

Esse haqida ruscha qisqacha terminlar lug'atida shunday deyiladi: "Unchalik katta hajmga ega bo'lmagan, erkin kompozitsiyali, maxsus mavzuga bag'ishlangan shaxsiy mulohazalar va taassurotlar asosiga qurilgan belletristik janr".¹⁰⁵ Haqiqatdan, Aleksandr Genis ta'kidlaganidek, dunyo adabiyotida yaratilgan esse, kundalik,

¹⁰³ O'sha asar.

¹⁰⁴ Holman, William (2003). A Handbook to Literature (9 ed.). New Jersey: Prentice Hall. p. 193.

¹⁰⁵ Краткая литературная энциклопедия. Том 8. М.: Советская энциклопедия, 1975. - С. 961.



maktub, roman-esse singari filologik roman tipidagi asarlarda to‘qima qahramonlar, to‘qima voqealar ustivor emas. Ularda sof real voqelik, to‘g‘rirog‘i, yozuvchining boshidan kechirgan yoki dildan his qilgan kechinmali tafakkur yetakchi o‘rinda turadi.¹⁰⁶

Mazkur janr borasida bir necha yillik izlanishlaridan keyin Epshteyn quyidagi xulosaga keladi: “Esse zamirida insonning aniq kontseptsiyasi mavjud bo‘lib, bu janrning muhim xususiyati, ko‘plab qomus va lug‘atlarda e’tirof etilganidek, esse katta bo‘lmagan hajm, aniq mavzu, sub’ektiv talqin, erkin kompozitsiya, paradoksli mulohazalar, og‘zaki suhbatga orientatsiya va h.k.z.”

Lekin yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib essenini hajm jihatidan chegaralab bo‘lmaydi. Bu borada adabiyotshunos Marhabo Qo‘chqorova o‘zining ilmiy tadqiqot ishida shunday deydi: “Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gossetning “Omma g‘alayoni”, “Falsafa nima” esselari o‘rtacha romandan kichikroq, qissadan esa kattaroq hajmga ega, yoki ingliz essenavisi Jorj Oruelning ayrim ilmiy publitsistik mazmundagi “Adabiyot va buyruqbozlik”, “Filning o‘ldirilishi” esselari hajman hikoyadek keladi. Bunday nasrga ko‘chgan mushohada-mulohazalar ham haqli ma’noda essedir. Chunki yuqorida aytilgan asarlarda essegga xos xususiyatlar yorqin ko‘rinib turadi”.¹⁰⁷

Qolaversa, 20-saming 70-yillarida Yevropa adabiyotida esse-roman, esse-qissa, esse-hikoya, hatto fantastik esselar ham yaratish avj olib ketishi essegga chegara qo‘yib bo‘lmashligiga dalil bo‘la oladi.

O‘zbek adabiyotida esse janriga jaxon adabiyotshunosligiga nisbatan birmuncha kengroq munosabat bildiriladi. Jumladan, “Adabiy turlar va janrlar” nazariy qo‘llanmasida esse haqida shunday deyiladi: “Essening hajmi va shakllari har xil. Ikki-uch satrdan iborat kichkina bir hayotiy manzarani yoki voqealar tasvirini ifodalashi, fikrning yoki kechinmaning aforistik talqinidan to epik janrga xos katta hajmli asar ham bo‘lishi mumkin”.¹⁰⁸

Adabiyotshunoslik lug‘atida berilgan ta’rifdan esse xususiyatlarini boshqa ta’riflardan ko‘ra yaxshiroq tushunish imkonini beradi: “Muallifning u yoki bu masala (muayyan voqea-hodisa, hayotiy holat va shu kabilar) bo‘yicha shaxsiy mulohazalari bayon qiluvchi nasriy asar; adabiy janr. Essening kompozitsion qurilishiga ham, tematik tomoniga ham cheklovlar qo‘yilgan emas, u muallifga o‘z fikr mulohazalari, kechinmalarini tom ma’noda ifodalash imkonini beradi. Tematik jihatdan tarixiy, biografik, adabiy-tanqidiy, ilmiy ommabop va shu kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan essegga xos yana bir xususiyat shuki, u qo‘yilgan masalaning tugal yechimini taqdim etish da’vosini qilmaydi, masala muallif hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda, uning ongiyu qalbidan o‘tkazib yoritiladi. Shu bois, esse markazida muallif shaxsiyati

¹⁰⁶ Генис А. Қалб фотографияси. Филологик роман тевагагида. // Жаҳон адабиёти - 2003. - №1. -Б. 144 - 158.

¹⁰⁷ Qo‘chqorova M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida esse janri. Filol fanlarinomzodi... diss. -Toshkent, 2004. -B. 43.

¹⁰⁸ Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik, 1-jild. Toshkent.: 1991. -B. 23.

turadi, bayon yaqqol ko'zga tashlanuvchi subyektiv bo'yoqdorlikka ega bo'ladi"¹⁰⁹ Bu borada Shukur Xolmirzayevdan essegga ko'p murajaat qilish sababi so'ralganda "... bolalikdan erkinlikni sevardim. Esse — erkin janr, bundan tashqari, u agar ta'bir joiz bo'lsa, "razmersiz janr"ki, kiyim tanlaganda bo'yinggayu eningga o'lchab o'tirganday siqilmaysan"¹¹⁰ deya ajoyib metaforik usulda javob beradi.

N. Rahimjonov "Badialarga... yaxlit estetik butunlik baxsh etuvchi narsa bu — san'atkor "meni" — san'atkor dunyoqarashidir", — deydi.¹¹¹ Bundan anglash mumkinki, esse va badia janrida yozuvchi fikri, nuqtai nazari bosh qahramon sifatida zuhurlanadi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida: "Esse (frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid sub'ektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy-biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi."¹¹²

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, esse va ocherk bir ma'nodagi janrmi? Bu borada yozuvchi Shukur Xolmirzayev esse, ocherk, hikoya janrlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "...hikoyada ma'lum bir voqea (inson hayotining ma'lum bir bo'lagi) tasvirlanadi. Demak, xolis tasvirlanadi va aksar hollarda hikoyadan chiqariladigan xulosa o'quvchiga havola etiladi... Eng yaxshi hikoyalar shu tariqa yoziladi ... Endi ocherk janrining o'ziga xos jihatlariga kelsak, bunda ham ma'lum bir voqea — inson qismatining bir bo'lagi qalamga olinadi-yu, ammo hikoyadan farqli o'laroq ocherkda mavjud — bor hayotiy odam qalamga olinadi. Shu bois muallifning o'sha odamga — qahramonga munosabati ochiq-oydin bo'rtib turadi... Endi "Esse"ga kelsak, bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh bo'lishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi: ya'ni esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqea-hodisaga — yana o'sha gap: inson qismatining ma'lum davri bo'lagiga nisbatan o'z munosabatini (ocherkdagi kabi) ochiq-oshkor bildirib turishi barobarida (bu yo'rug'da) o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bimalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya o'rtasidan o'sib chiqqan janr — tasvir usulidirki, u maqola — maqola ilmiy bo'ladimi, badiiyoq bo'ladimi, baribir, — maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, to'g'rirog'i, ularni-da o'ziniki qilib oladi.¹¹³ Ma'lum bo'ldiki, essening ocherkdan farqi uning his-hayajonga boyligi va asosan shaxsiy mulohazalarni ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

¹⁰⁹ D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati T. Akademnashr, -B. 376.

¹¹⁰ M. Qo'chqorova «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2003 yil 16-soni

¹¹¹ N. Rahimjonov Badia haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1983. 5-son, 21-bet.

¹¹² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2005. -B. 222.

¹¹³ M. Qo'chqorova «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2003 yil 16-soni



Ensiklopedik lug`atda essening mazmuniga ko`ra quyidagi qisqacha tasnif berilgan: Esse falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, publitsistik proza janri”¹¹⁴. Essening mazmun-mohiyatiga ko`ra to`liqroq tasnifni Marhabo Qo`chqorova «Hozirgi o`zbek adabiyotida esse janri» nomli filologiya fanlari nomzodligini olish uchun yozgan dissertatsiyasida¹¹⁵ ko`ramiz:

- 1) Falsafiy-estetik esselar (Alber Kamyu, Xose Ortega-i-Gasset, Asqad Muxtor).
- 2) Adabiy-tanqidiy esselar (Jorj Oruell, Pirimqul Qodirov, Askad Muxtor, Ozod Sharafiddinov).
- 3) Tarixiy-biografik esselar (Andre Morua, Chesterton, Yuriy Olesha, Erkin Samandar, N.Karimov)
- 4) Xotiraviy esselar (A.Morua, Olesha, I.Erenburg, S.Ahmad, Sh.Xolmirzaev)
- 5) Ijtimoiy-siyosiy esselar (X.O.Gasset, J.Oruell, Sh.Xolmirzaev)
- 6) Badiiy-publitsistik esselar (A.Kamyu, M.Tsvetaeva, Cho`lpon)
- 7) Fantastik esselar (Tomas Mann, Robert Muzil).

Dunyo adabiyotshunosligida esse janri va uning xususiyatlari haqidagi qarashlar, nazariy fikrlarda biroz turfa xillikni kuzatish mumkin. Bundan janrning chegarasi aniq emasligi, aniq bir to`xtami yo`q ekanligi tushuniladi. Shunday bo`lsada ularni jamlagan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Esse mustaqil janr sifatida shakllanishi XVI asrga to`g`ri keladi va bu fransuz adibi M. Monten faoliyati bilan bog`liq, janrning nomi esa uning 1580-yilda chop qilingan fransuzcha “Essais” (tajribalar, urinishlar) asari bilan bo`g`lanadi.
- Essega xos xususiyatlar Sharq adabiyotida xususan o`zbek adabiyotida “badia” shaklida qadimdan mavjud bo`lgan.
- Esse janri dunyoni bilishga qiziqish, insonning ichki kechinmalarini o`rganishga, shaxsiy tajriba, bilim va mulohazalarni zohir qilishga bo`lgan ehtiyoj natijasida vujudga keldi.
- Esse janrida muallifning «men»i yetakchi mavqega ega bo`lgan, yozuvchining shaxsiy mulohaza va taassurotlari asosiga quriluvchi erkin kompozitsiyali nasriy ijod namunasidir.
- Essening maqsadi — shaxsiy ijodiy fikrni yozma ravishda yetkazishdir. Unda muallifning o`y va mulohazalari, o`ziga xos argumentlari muammo bo`yicha isbot sifatida beriladi.
- Yozuvchining yangicha erkin yozish, erkin fikrlash, an`anaviylikdan qochish istagi adabiyotda esse-xotira, roman-esse, qissa-esse, hikoya-esse, maqola-esse kabi esse janri turlarining keng rivojlanishiga imkon yaratdi.
- Xususan Yevropa va inglizzabon yurtlarda ijod ahli uchun esse faqat adabiy janr emas, u shunday qulay janrki, turli xil kasb egalari o`z sohalariga oid

¹¹⁴ Ensiklopedik lug`at. Toshkent.: 1990. –B. 440.

¹¹⁵ Qo`chqorova M. Hozirgi o`zbek adabiyotida esse janri. Filol fanlari nomzodi... diss. -Toshkent, 2004. -B. 25-26.



mulohazalari, shaxsiy munosabat va tajribasini unda ifodalay oladi. Bilim va tajribasidan kelib chiqib dunyo va jamiyatda bo'layotgan voqelikka nisbatan o'z munosabatini yozma shaklda taqdim eta oladi. Esse shu xususiyati bilan boshqa nasriy janrlardan ajralib turadi.

- Inglizcha essay so'zi o'zbek tilidagi ham adabiy janr bo'lgan esse, ham insho ma'nolarini ifodalagan holda, ikkalasi bir-biridan farq qiladi. Esse to'laligicha erkin, qoliplarsiz yoziladi, ya'ni reja tuzilmaydi, insho esa rejasiz yozilmaydi. Esse to'laligicha shaxsiy fikr-mulohaza, his-tuyg'ular tasviridan iborat bo'ladi, inshoda esa, imkon qadar xolis bo'lishga harakat qilinadi. Shuningdek, esse har doim birinchi shaxsda yoziladi, ya'ni yozuvchining "men"i zohir bo'lib turadi, inshoda bunday talab mavjud emas.

- Dunyo adabiyotida yaratilgan esselerde to'qima qahramonlar, to'qima voqealar ustivor emas. Ularda sof real voqelik, to'g'rirog'i, yozuvchining boshidan kechirgan yoki dildan his qilgan kechinmali, obrazli tafakkur yetakchi o'rinda turadi.

- Esse zamirida insonning aniq konseptsiyasi mavjud bo'lib, bu janming muhim xususiyati, aniq mavzu, sub'ektiv talqin, erkin kompozitsiya, paradoksli mulohazalar, og'zaki suhbatga orientatsiyadir.

- Esse ikki-uch satrdan iborat kichkina bir hayotiy manzarani yoki voqealar tasvirini ifodalashi, fikrning yoki kechinmaning aforistik talqinidan to epik janrga xos katta hajmli asar ham bo'lishi mumkin. Essening hajmiga chegara qo'yib bo'lmasada, ko'pincha u uncha katta bo'lmagan nasriy asardir.

- Essening kompozitsion qurilishiga ham, tematik tomoniga ham cheklovlar qo'yilgan emas. Bu janr tematik jihatdan adabiy-tanqidiy, ilmiy ommabop, falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, xotiraviy esselar, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-publitsistik, fantastik, ob'ektiv, faktik ya'ni konkret xususiyatli va shu kabi ko'rinishlarga ega.

- Essega xos yana bir xususiyat shuki, u qo'yilgan masalaning tugal yechimini taqdim etish da'vosini qilmaydi, masala muallif hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda, uning ongiyu qalbidan o'tkazib yoritiladi. Shu bois, esse markazida muallif shaxsiyati turadi, bayon yaqqol ko'zga tashlanuvchi subyektiv bo'yoqdorlikka ega bo'ladi.

- Esse janrida bosh qahramon ko'pincha yozuvchining fikri, nuqtai nazaridir.

- Essening ocherkdan farqi shundaki, esseda ocherkdagi kabi inson qismatining ma'lum davri bo'lagiga nisbatan o'z munosabatini ochiq-oshkor bildirib turishi barobarida o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga egadir. Shuning uchun ham esse — erkin janr hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimjonov N. Badia haqida // O`zbek tili va adabiyoti. 1983. 5-son.
2. Рахимжонов Н. Илмий тафаккур жилолари. - Т.: Фан, 1991. - Б. 44.
3. Kazakova G.Q: Ijodkor siymosiga badiiy chizgilar (xotira-esselar)/ "Экономика и социум" №8(99) 2022. -b. 24.
4. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2005. -B. 222.
5. Dictionary of world literary terms. Ed. by J.T. Shiplaey. L. 1970. -p. 106; Current literary terms. A.Dictionary of Originind USE. L. 1980. -p. 98
6. World book encyclopedia. vol. 5. Chicago., 1947. -p. 2385
7. Aldous Huxley, Collected Essays, "Preface", London: Harper and Brothers, 1960, p. v. <https://en.wikipedia.org/wiki/Essay>
8. Holman, William (2003). A Handbook to Literature (9 ed.). New Jersey: Prentice Hall. p. 193.
9. Краткая литературная энциклопедия. Том 8. М.: Советская энциклопедия, 1975. - С. 961.
10. Генис А. Қалб фотографияси. Филологик роман теварагида. // Жаҳон адабиёти - 2003.- No1.-B. 144 -158.
11. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik, 1-jild. Toshkent.: 1991. –B. 23.
12. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug`ati T. Akademnashr, -B. 376.
13. M. Qo`chqorova «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasining 2003 yil 16-soni
14. N.Rahimjonov Badia haqida // O`zbek tili va adabiyoti. 1983. 5-son, 21-bet.
15. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2005. -B. 222.
16. M. Qo`chqorova «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasining 2003 yil 16-soni
17. Ensiklopedik lug`at. Toshkent.: 1990. –B. 440.
18. Qo`chqorova M. Hozirgi o`zbek adabiyotida esse janri. Filol fanlari nomzodi... diss. -Toshkent, 2004. -B. 25-26.